

UMUMIY O’RTA TALIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANI O’QUV-REJA VA DASTURLARI TAHLILI

Xolmatov Pardaboy Karabekovich

JVPYAMOMM, Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent., Jizzax sh., O’zbekiston.

e-mail: pardaboy2012gmail.com

Har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog’liqdir. Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimizda o’tgan davr mobaynida ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, o’g’il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan etuk insonlar bo’lib ulg’ayishini ta’minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirishga bog’lik. Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o’qitishga yangicha yondashuvni, o’quvchilarning bu fandan o’zlashtirishi lozim bo’lgan bilim va ko’nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo’ymoqda. Bugungi kunga kelib, o’quv axborotlari hajmining haddan tashqari ko’payib ketganligi o’quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni “**o’qish va o’rganishga o’rgatish**”ni talab qilmoqda. Jadallik bilan o’zgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko’rsatish va yashash o’quvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni o’zlashtirishni, balki turfa ko’rinishdagi ma’lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, oxirgi paytlarda maktabda texnologiya fani bo’yicha o’quvchilar o’zlashtirishi nisbatan past bo’lib kelmoqda. Bu qaysidir ma’noda texnologiya fani mazmunining bir muncha nazariy, ilmiy, mantiqiy va amaliy tuzilishga ega ekanligi, texnologiya fani mazmunining hayotiy masalalarga kamroq bog’langan holda o’qitilishi hamda texnologiya fanini o’qitish metodikasining takomillashmagani bilan ham izohlash mumkin. Shulardan kelib chiqib, texnologiya fanini o’qitishga ham zamonaviy talablar qo’yilmoqda va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko’rib chiqishni taqozo etmoqda.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitiladigan **Texnologiya fanining maqsadi** – zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, innovatsion va milliy xalq hunarmandchiligi usullari asosida ishlab chiqarishni o’rgatish orqali o’quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko’nikmalarini rivojlantirish,

ongli ravishda kasb tanlashga yo‘llashga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv rejasida texnologiya o‘quv faniga 1-4 sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7 sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9 sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo‘lib 407 soat vaqt ajratiladi.

Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi

O‘quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12
Jami:	33	34	34	34	68	68	68	34	34	407

Bugungi kunda barcha fanlar qatori Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturining dastlabki loyihasi ishlab chiqilib, Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 9-dekabrda “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 298-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlandi hamda bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o‘tkazilmoqda.

Texnologiya fani 5-9-sinflar uchun o‘quv dasturiga yangidan kiritilgan bo‘limlar va mavzular tahlili

Texnologiya fani umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-7-sinflarida 3 ta yo‘nalishda o‘qitiladi.

1. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi

2. Servis xizmati yo‘nalishi

3. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi

Dars mashg‘ulotlari sinf o‘quvchilarini 2 guruhga o‘g‘il va qiz bolalarga bo‘lgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, bu yo‘nalishlar maktab joylashgan hudud va maktabning shart-sharoitlaridan hamda mavjud moddiy-texnik bazadan kelib chiqqan holda ixtiyoriy tanlab olingan holda o‘qitilishi ham mumkin.

1. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi. Bu yo‘nalish bo‘yicha tashkil qilingan ta’lim jarayonida o‘quvchilar zamonaviy texnika va texnologiyalar, materiallarga (yog‘och, metall, kompozit va boshqalar) ishlov berish texnologiyasi, elektrotexnika ishlari, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari bo‘yicha uy-ro‘zg‘or ishlari va xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to‘g‘risidagi kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Natijada o‘quvchilar turli asbob-uskunalar, texnologik xaritalar bilan ishlash, ro‘zg‘orbop va xaridorgir buyumlarni ishlab chiqarishni o‘rganish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Sohalarga oid kasblar haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

2. Servis xizmati yo‘nalishi. Bu yo‘nalish bo‘yicha tashkil qilingan ta’lim jarayonida o‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi, materiallarga (gazlama, ip va boshqalar) ishlov berish texnologiyasi, robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari bo‘yicha uy-ro‘zg‘or ishlarini va xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to‘g‘risidagi kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Natijada o‘quvchilar turli asbob-uskunalar, texnologik xaritalar bilan ishlash, ro‘zg‘orbop va xaridorgir buyumlarni ishlab chiqarishni o‘rganish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Sohalarga oid kasblar haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

3. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi. Bu yo‘nalish bo‘yicha tashkil qilingan ta’lim jarayonida o‘quvchilar agrotexnika asoslari, qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalar, mashinalari va ulardan foydalanish, bog‘dorchilik, chorvachilik va robototexnika asoslari, ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari bo‘yicha uy-ro‘zg‘or ishlarini va xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to‘g‘risidagi kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Natijada o‘quvchilar turli qishloq xo‘jalik asbob-uskunalar, texnika va texnologiyalari bilan ishlash, ekinlarni parvarish qilish va yetishtirishning noan‘anaviy usullarini o‘rganish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. Sohalarga oid kasblar haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Bu yo‘nalish amaldagi o‘quv dasturida kiritilmagan. Yangidan ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturiga yangidan kiritildi. Bu yo‘nalish mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda sinf o‘quvchilarini ikki guruhga bo‘lgan holda o‘g‘il va qiz bolalarga o‘qitiladi.

Texnologiya fanining amaldagi o‘quv dasturi hamda ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturi loyihasiga 5-7-sinflar uchun yangidan kiritilgan bo‘limlar va mavzular tahlil qilindi. Unga ko‘ra:**5-sinf**

№	Amaldagi Texnologiya fani o‘quv dasturida	Soati	№	Taklif etilayotgan Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturida	Soati
I. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi					
1.	Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi	30	1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	4

2.	Metallga ishlov berish texnologiyasi	12	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	44
3.	Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi	5	3.	Robototexnika asoslari	16
4.	Elektrotexnika ishlari	10	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	4
5.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	3			
	Nazorat ishlari uchun	8			
Jami:		68	Jami:		68
II. Servis xizmati yo‘nalishi					
1.	Pazandachilik asoslari	16	1.	Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi	14
2.	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi	42	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	40
3.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	2	3.	Robototexnika asoslari	10
	Nazorat ishlari uchun	8	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	4
Jami:		68	Jami:		68
III. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi					
	Mavjud emas		1.	Agrotexnika	16
			2.	Qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari, mashinalari va ulardan foydalanish	10
			3.	Bog‘dorchilik	10
			4.	Chorvachilik asoslari	12
			5.	Robototexnika asoslari	16
			6.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	4
			Jami:		68

6-sinf

№	Amaldagi Texnologiya fani o‘quv dasturida	Soati	№	Taklif etilayotgan Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturida	Soati
I. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi					
1.	Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi	27	1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	4
2.	Metallga ishlov berish texnologiyasi	13	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	42
3.	Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi	6	3.	Robototexnika asoslari	16
4.	Elektrotexnika ishlari	10	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya	6

				asoslari	
5.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	4			
	Nazorat ishlari uchun	8			
Jami:		68	Jami:		68
II. Servis xizmati yo‘nalishi					
1.	Pazandachilik asoslari	16	1.	Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi	14
2.	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi	42	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	38
3.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	2	3.	Robototexnika asoslari	10
	Nazorat ishlari uchun	8	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	6
Jami:		68	Jami:		68
III. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi					
	Mavjud emas		1.	Agrotexnika	14
			2.	Qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari, mashinalari va ulardan foydalanish	10
			3.	Bog‘dorchilik	12
			4.	Chorvachilik asoslari	10
			5.	Robototexnika asoslari	16
			6.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	6
			Jami:		68

7-sinf

№	Amaldagi Texnologiya fani o‘quv dasturida	Soati	№	Taklif etilayotgan Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturida	Soati
I. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi					
1.	Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi	27	1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	4
2.	Metallga ishlov berish texnologiyasi	13	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	42
3.	Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi	6	3.	Robototexnika asoslari	16
4.	Elektrotexnika ishlari	10	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	6
5.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	4			
	Nazorat ishlari uchun	8			
Jami:		68	Jami:		68
II. Servis xizmati yo‘nalishi					

№	Amaldagi Texnologiya fani o‘quv dasturida	Soati	№	Taklif etilayotgan Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturida	Soati
1.	Pazandachilik asoslari	16	1.	Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi	14
2.	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi	40	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	38
3.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	4	3.	Robototexnika asoslari	10
	Nazorat ishlari uchun	8	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	6
Jami:		68	Jami:		68
III. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi					
	Mavjud emas		1.	Agrotexnika	14
			2.	Qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari, mashinalari va ulardan foydalanish	10
			3.	Bog‘dorchilik	12
			4.	Chorvachilik asoslari	10
			5.	Robototexnika asoslari	16
			6.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya asoslari	6
			Jami:		68

8-sinf

№	Amaldagi Texnologiya fani o‘quv dasturida	Soati	№	Taklif etilayotgan Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturida	Soati
I. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi					
1.	Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi	8	1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	2
2.	Elektronika asoslari	9	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	14
3.	Kasb tanlashga yo‘naltirish	13	3.	Robototexnika asoslari	8
	Nazorat ishlari uchun	4	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari	10
Jami:		34	Jami:		34
II. Servis xizmatiyo‘nalishi					
1.	Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi	8	1.	Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi	8

2.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	9	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	10
3.	Kasb tanlashga yo‘naltirish	13	3.	Robototexnika asoslari	6
4.	Nazorat ishlari uchun	4	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari	10
Jami:		34	Jami:		34
III. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi					
	Mavjud emas		1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	2
			2.	Qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil qilish texnologiyasi	14
			3.	Robototexnika asoslari	8
			4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari	10
			Jami:		34

9-sinf

№	Amaldagi Texnologiya fani o‘quv dasturida	Soati	№	Taklif etilayotgan Texnologiya fani Milliy o‘quv dasturida	Soati
I. Texnologiya va dizayn yo‘nalishi					
1.	Kasb tanlashga yo‘naltirish	14	1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	2
2.	Elektronika asoslari	9	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	14
3.	Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi	7	3.	Robototexnika asoslari	8
	Nazorat ishlari uchun	4	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari	10
Jami:		34	Jami:		34
II. Servis xizmati yo‘nalishi					
1.	Kasb tanlashga yo‘naltirish	14	1.	Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi	6
2.	Ro‘zg‘orshunoslik asoslari	9	2.	Materiallarga ishlov berish texnologiyasi	12
3.	Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi	7	3.	Robototexnika asoslari	6
	Nazorat ishlari uchun	4	4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari	10

Jami:	34	Jami:	34	
III. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi				
	Mavjud emas	1.	Zamonaviy texnika va texnologiyalar	2
		2.	Qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil qilish texnologiyasi	14
		3.	Robototexnika asoslari	8
		4.	Ijtimoiy-iqdisodiy texnologiya va kasb-hunar asoslari	10
		Jami:	34	

***Izoh:** Texnologiya fani o‘quv dasturining tegishli bo‘limlariga kiritilgan o‘zgarishlar mutaxassislar, amaliyotchi o‘qituvchilar va boshqa soha vakillari tomonidan berilgan takliflarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.*

Texnologiya fani 5-7-sinflar uchun Milliy o‘quv dasturiga:

“Zamonaviy texnika va texnologiyalar” va “Robototexnika asoslari”, **Servis xizmati** va **Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishlariga** esa “Robototexnika asoslari” bo‘limlari yangidan kiritildi.

Texnologiya va dizayn hamda **Servis xizmati yo‘nalishlaridagi** qolgan bo‘limlar nomi va ularga kiritilgan mavzular mazmunan takomillashtirilib oddiydan murakkabga tomon prinsipiga ko‘ra sinfdan-sinfga o‘tkazildi. Ba’zi mavzular yangi davr o‘quvchisi dunyoqarashi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, fanni modernizatsiyalanayotganligini inobatga olgan holda chiqarib tashlandi. Jumladan:

Texnologiya va dizayn yo‘nalishi bo‘yicha:

5-sinfga 23 ta mavzu, 6-sinfga 29 ta mavzu, 7-sinfga 31 ta mavzular yangidan kiritildi.

5-sinfdagi 11 ta mavzu, 6-sinfdagi 5 ta mavzu, 7-sinfdagi 3 ta mavzular yangi davr o‘quvchisi dunyoqarashi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, fanni modernizatsiyalanayotganligini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

5-sinfdan 14 ta mavzu, 6-sinfdan 20 ta mavzu, 7-sinfdan 24 ta mavzular chiqarib tashlandi.

Qolgan mavzular oddiydan murakkabga tomon prinsipiga ko‘ra sinfdan-sinfga o‘tkazildi.

Servis xizmati yo‘nalishi bo‘yicha:

5-sinfga 26 ta mavzu, 6-sinfga 23 ta mavzu, 7-sinfga 22 ta mavzular yangidan kiritildi.

5-sinfdagi 8 ta mavzu, 6-sinfdagi 11 ta mavzu, 7-sinfdagi 12 ta mavzular yangi davr o‘quvchisi dunyoqarashi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, fanni modernizatsiyalanayotganligini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

5-sinfdan 22 ta mavzu, 6-sinfdan 8 ta mavzu, 7-sinfdan 13 ta mavzular chiqarib tashlandi.

Qolgan mavzular oddiydan murakkabga tomon prinsipiga ko‘ra sinfdan-sinfga o‘tkazildi.

Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi yangidan kiritildi. Bu yo‘nalish asosan “Agrotexnika”, “Qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalari, mashinalari va ulardan foydalanish”, “Bog‘dorchilik” va “Chorvachilik asoslari” bo‘limlarini qamrab olgan. **Bu yo‘nalish bo‘yicha** 5-sinfga 24 ta mavzu, 6-sinfga 26 ta mavzu, 7-sinfga 36 ta mavzular yangidan kiritildi.

Texnologiya fani 8-9-sinflar uchun Milliy o‘quv dasturiga:

Texnologiya va dizayn yo‘nalishiga “Zamonaviy texnika va texnologiyalar” va “Robototexnika asoslari”, **Servis xizmati yo‘nalishiga** esa “Robototexnika asoslari” bo‘limlari yangidan kiritildi.

Texnologiya va dizayn hamda **Servis xizmati** yo‘nalishlaridagi qolgan bo‘limlar nomi va ularga kiritilgan mavzular mazmunan takomillashtirilib oddiydan murakkabga tomon prinsipiga ko‘ra sinfdan-sinfga o‘tkazildi. Ba’zi mavzular yangi davr o‘quvchisi dunyoqarashi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, fanni modernizatsiyalanayotganligini inobatga olgan holda chiqarib tashlandi. Jumladan:

Texnologiya va dizayn yo‘nalishi bo‘yicha:

8-sinfga 16 ta mavzu va 9-sinfga 13 ta mavzular yangidan kiritildi.

8-sinfdagi 18 ta mavzu va 9-sinfdagi 21 ta mavzular yangi davr o‘quvchisi dunyoqarashi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, fanni modernizatsiyalanayotganligini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

8-sinfdan 20 ta mavzu va 9-sinfdan 15 ta mavzular chiqarib tashlandi.

Qolgan mavzular oddiydan murakkabga tomon prinsipiga ko‘ra sinfdan-sinfga o‘tkazildi.

Servis xizmati yo‘nalishi bo‘yicha:

8-sinfga 16 ta mavzu va 9-sinfga 11 ta mavzular yangidan kiritildi.

8-sinfdagi 18 ta mavzu va 9-sinfdagi 23 ta mavzular yangi davr o‘quvchisi dunyoqarashi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, fanni modernizatsiyalanayotganligini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

8-sinfdan 18 ta mavzu va 9-sinfdan 16 ta mavzular chiqarib tashlandi.

Qolgan mavzular oddiydan murakkabga tomon prinsipiga ko‘ra sinfdan-sinfga o‘tkazildi.

Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yo‘nalishi yangidan kiritildi. Bu yo‘nalish asosan “Zamonaviy texnika va texnologiyalar” va “Qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil qilish texnologiyasi” bo‘limlarini qamrab olgan. Bu yo‘nalish bo‘yicha 8-sinfga 10 ta mavzu va 9-sinfga 8 ta mavzular yangidan kiritildi.

Xulosa sifatida texnologiya fanini o‘zlashtirgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik bazalarining yanada rivojlanishi, bir so‘z bilan aytganda, yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida **“drayver”** rolini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasi. Toshkent: RTM, 2020.-80 b.
2. Tohirov O‘.O. Texnologiya o‘quv fani davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturini ta’lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b.
3. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.-260 b.
4. Tohirov O‘.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2020.-240 b.
5. Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A., Tohirov O‘.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2021.-240 b.
6. Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o quvchilarni kasbhunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Maktab va hayot. 8 .2022
7. Xolmatov P.Q. va boshq. Oquv qo'llanma. Kasb tanlash hususiatlari. Poytaht-inksklyuziv.-T.2022.